

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, B.S.Sharipova

Bioetik bilim tushunchasining mazmun-mohiyati, uni shakllantirishning pedagogik zarurati..... 6

Sh.K.Xujamberdiyeva

Maktabgacha yoshdag'i bolalarni insoniy fazilatlarini shakllantirishda badiiy asarlarning o'rni..... 11

M.B.Artikova, M.M.Mutallibjonov

Talabalar kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalar tadqiqi 16

M.M.Kaxarova, N.E.Yusupova

Ingliz tili darslarida matn bilan ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ... 23

M.M.YakubbayevDevelopment of lingvocultural competence of students in the process of teaching
german language 29**J.A.Yuldashev**Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga aksiologik yondashuvni joriy etishning
metodik xususiyatlari..... 34**X.T.Nishonova**Methods of developing students' lexical competence through comics in English lessons in
elementary grades 38**Sh.M.Robilova**

O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik modeli..... 43

U.S.Do'sanovOliy o'quv yurti talabalariga jismoniy tarbiya tizimida sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalarini
qo'llash metodikasi..... 47**X.X.Umarov**

Влияние высокоинтенсивной тренировочной нагрузки на организм юных гимнастов 51

D.K.KarimovМониторинг эффективности корреляционной связи спортивной специализации от
типов телосложения у юных акробатов 55**Z.G.Gapparov**

Исследование новых технологий синхронизации движения в синхронном плавании 61

M.N.NasritdinovaArtpedagogika fanini o'qitish jarayonida bo'lajak pedagoglar badiiy-ijodiy kompetentligini
rivojlantirish..... 67**M.G.Zaylobidinova**Nodavlat ta'lif muassasalarida ta'lif oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishning
pedagogik omillari, Xitoy tajribasi 72**D.K.Baydjanova**

Bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni 78

I.A.RaxmonovBoshlang'ich sinf o'quvchilarida hayot faoliyati xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishni
pedagogik muammosi..... 82

IQTISODIYOT

M.K.Abadov

Possible consequences of the refusal to switch to a digital currency in Azerbaijan 85

FALSAFA

M.A.Mamatov

So'fiylik – gumanistik ta'limot 90

Sh.O.Ahrorova

Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'rni 98

D.Y.Qambarova

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichda ijtimoiy munosabat mezonlari 102



УО'К: 37.013:930.1

**BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIGA AKSIOLOGIK
YONDASHUVNI JORIY ETISHNING METODIK XUSUSIYATLARI**

**МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО
ПОДХОДА В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ**

**METHODOLOGICAL FEATURES OF THE IMPLEMENTATION OF THE AXIOLOGICAL
APPROACH IN THE PROCESS OF TRAINING FUTURE HISTORY TEACHERS**

Yuldashev Javohir Abdurahim o'g'li 

Namangan davlat pedagogika instituti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada aksiologik pozisiyaning nazarini asosari, uni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari hamda amaliy metodlari keltiriladi. Shuningdek, o'qituvchilarning dars jarayonida tarixiy voqealar va hodisalar qadriyatlar nuqtai nazaridan talqin qilish malakasini oshirish yo'llari yoriltiladi. Ushbu metodikaning ahamiyati va uning o'quvchilarda madaniy va ma'nnaviy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirishdagi orni alohida ko'satib o'tiladi.

Аннотация

В статье представлены теоретические основы аксиологической позиции, современные педагогические технологии и практические методы ее развития. Также будут освещены пути совершенствования умений учителей интерпретировать исторические события и явления с точки зрения ценностей в ходе урока. Отдельно будет показано значение данной методики и ее роль в формировании у студентов чувства уважения к культурным и духовным ценностям.

Abstract

The article presents the theoretical foundations of the axiological position, modern pedagogical technologies and practical methods of its development. It will also highlight ways to improve teachers' skills in interpreting historical events and phenomena from the point of view of values during the lesson. The importance of this technique and its role in forming students' sense of respect for cultural and spiritual values will be shown separately.

Kalit so'zlar: aksiologik pozisiya, tarix o'qituvchilarini, qadriyatlar nazariyasi, pedagogik texnologiyalar, tarix ta'limi, o'quvchilarda qadriyatlarni shakllantirish, ma'nnaviy tarbiya, innovasion metodlar, tarixiy tafakkur, ta'lim jarayonida qadriyatlar.

Ключевые слова: аксиологическая позиция, учителя истории, теория ценностей, педагогические технологии, историческое образование, формирование ценностей у учащихся, духовное воспитание, инновационные методы, историческое мышление, ценности в образовательном процессе.

Key words: axiological position, history teachers, theory of values, pedagogical technologies, historical education, formation of values in students, spiritual education, innovative methods, historical thinking, values in the educational process.

KIRISH

Bugungi kunda bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda, ularning kasbiy bilim va ko'nikma malakalarini rivojlantirishda qadriyatli yondashuvdan foydalanish dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoniga innovasion texnologiyalarini keng joriy etish, aksiologik yondashuv asosida talabalarning milliy qadryatlarimizni asrab avaylashga doir bilimlarini takomillashtirishga ham alohida e'tibor qaratilmqoda. Shuningdek, talabalarning bo'lajak kadr sifatida pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini aks ettiruvchi integrativ o'ziga xoslik sifatida aksiologik yondashuvdan foydalanishning imkoniyatlari, pedagogik asoslari va ijtimoiy zaruratini tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu bois ham bo'lajak tarix o'qituvchilarida milliy qadryatlar merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini takomillashtirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish, bu asosida milliy musiqiy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish, qadriyatli ong asosida musiqa madaniyatini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Buning uchun esa, eng avvalo bo'lajak tarix o'qituvchilarda

PEDAGOGIKA

qadriyatlarni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlash, pedagogik, psixologik va uslubiy yondashuvlarni rivojlantirosh lozim.

Bu jarayon ta'limga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ya'ni ta'limda aksiologik yondashuvdan foydalanish asosida fanga, ilmiy yondashuvlarga va yoki ilmiy jarayonga qadr tuyg'usi bilan qarash va unga ergashish ehtiyojlarini yuzaga keltirmoqda. Qadriyatlar, munosabat va yo'naliishlarni uyg'unlashtirishga urg'u beradigan aksiologik yondashuv kasbiy ta'limda, bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy va ijtimoiy-madaniy kasbiy fazilatlarini tarbiyalashda asosiy ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

V.P.Zinchenko XX asr umuminsoniy qadriyatlarning eng yuqori darajada qadrsizlanish davri deb aytish mumkinligini ta'kidlab o'tadi.¹ Ana shu sababli ilmiy jamoatchilik insoniyat tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan qadriyatlarni aniqlash, tartibga solish va tizimlashtirishga faol harakat qilmoqda. talabalarda milliy, umuminsoniy, ma'naviy-axloqiy, kasbiy, shaxsiy, oilaviy qadriyatlar tizimini rivojlantirish masalasining ayrim pedagogik jihatlari Pedagogik jarayonda ma'lum bir muammoga alohida e'tibor qaratish, bilim yoki ko'nikmani shakllantirishga qadriyatli munosabatni yuzaga keltirishda aksiologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy bilishda olam, undagi narsa, voqeа, hodisa va boshqalar qadriyatning inson ongida aks etishi, qadriyatni anglashning reallikka mos kelish qonunlari, daraja va imkoniyatlari, uning me'yor va mezonlarini aniqlash nihoyatda muhim. Bunga umumiyl bilish ilmi bilan bir qatorda ijtimoiy va tabiiy fanlarning ma'lumotlariga, ayniqsa, oliy asab sistemasining fiziologiyasi, hissiyot organlari va aqliy faoliyatning dalillariga, mantiq, tilshunoslik kabi fanlarning yutuqlariga tayaniladi.

Pedagog olim B.Xodjayev ta'kidlab o'tganidek, tarixiy tafakkur fuqarolik jamiyatini taraqqiy ettirishning muhim omili bo'lib, o'tmishni anglash, uni to'g'ri tushunish orqali o'quvchilarning ongi va ruhiyatida jiddiy o'zgarishlarni tarkib toptirish, bu orqali hayotni, turmush tarzini ma'naviy isloh qilishga erishiladi. Tarixiy tafakkur – milliy mustaqillik va taraqqiyotning "o'zbek modeli" asosini tashkil etib, u o'quvchi tomonidan yaxlit tarixiy voqelikni o'zlashtirish, ularning o'zaro munosabati hamda aloqadorligini umumlashtirish orqali tarixiy jarayonlarning tub mohiyatini anglash, tarix saboqlaridan oqilona xulosa chiqarish qobiliyatidir.

Qadriyatlarni anglash, o'rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg'unligi, hukm, xulosalarning tushuncha, atama va belgilarni umumlashtirishi, tabiiy va ijtimoiy voqelikdagи aksiologik jarayonlarni tahlil qilish, ularga tayanib amaliy faoliyat yuritish bir-biri bilan bog'liq uzviy jarayonni anglatadi.

Bunday yondashuv o'qituvchiga ta'sir etuvchi asosiy komponentlarni aniqlash uchun miqdoriy va sifat usullarining kombinatsiyasini talab qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida qadriyatlar mezonlarini aniqlashtirish va mavjud qadriyatlarga hurmatni tarbiyalash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish zarurligiga e'tibor qaratgan holda aksiologik pozisiyani rivojlantirish. ta'limda shaxsnинг erkin va ijodiy rivojlanishiga, fikrlar plyuralizmiga va ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga, shu orqali o'qituvchining qadriyatlar tizimi va kasbiy mas'uliyatini oshirishga yordam beradigan muloqot maydonini yaratish talab etiladi.

Umumjahon insoniy qadriyatlarning integratsiyasini Insonparvarlik ta'lim muhitiga aylantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki u shaxs va jamiyat ehtiyojlarini aks ettiradi, nazariy, uslubiy va axloqiy-ma'naviy darajalarda qadriyat yo'naliishlarini shakllantirishga yordam beradi. Kasbiy aksiologik yo'naliishlarni shakllantirishning psixologik modeli rivojlanish, qayta ishslash va natijalarning o'zaro bog'liq bloklarini o'z ichiga oladi, rivojlanish bosqichlari, mezonlari va darajalarini belgilaydi, shu orqali o'qituvchi ta'limida xalqaro va milliy tajribani integratsiyalashuvining yangi maqsadlarini belgilaydi.

Aksiologik jihat - ta'lim jarayonida kasbiy tayyorgarlikga yaxlitlikni berish uchun zarur bo'lib, u bilim, qadriyatlarni tushunish va bilimlarni ijodiy o'zgartirish orqali tizimli rivojlanishni talab qiladi, bu esa pirovardida o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirishga yordam beradi. Pedagogika faniga oid dissertatsiyalar tezislarni tahlil qilishda o'qituvchilar malakasini oshirishning aksiologik yo'l-yo'rqlarini aniqlash, o'qituvchi ta'limini aksiologizatsiyalashni kuchaytirish uchun ham nazariy, ham amaliy tadqiqot muammolarini hal etish uchun uslubiy aks ettirish zarurligi ta'kidlangan. Bundan tashqari, bo'lajak tarix o'qituvchilarda vatanparvarlik kasbiy pozisiyasini shakllantirish. konseptual va uslubiy asoslarni ishlab chiqish, ta'lim faoliyatini mantiqiy tashkil etish, barqaror kasbiy pozisiyani shakllantirish va ezgu pedagogik mehnatga sadoqatni o'z ichiga oladi.

¹ 1 Зинченко В.П. Человек развивающийся. Очерки российской психологии. – М.: Тривала, 1994. –С.304.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Umuman olganda, bo'lajak tarix o'qituvchilarning aksilogik pozisiyasini ishlab chiqish metodikasi - bu ularning kasbiy va shaxsiy o'sishi uchun zarur bo'lgan ishonchli qadriyatlar tizimini ishlab chiqish uchun turli xil ta'lim strategiyalari, nazariy g'oyalar va amaliy ilovalarni birlashtirgan dinamik va integratsiyali jarayondir.

Bo'lajak tarix o'qituvchisi o'z darslarida nafaqat tarixiy faktlarni yetkazishi, balki ularni qadriyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilishi lozim. Chunki tarixiy voqealar axloqiy va madaniy qadriyatlarning evolyusiyasini ifodalaydi. Shu sababli, bo'lajak tarix o'qituvchilarining aksilogik pozisiyasini ularning kelajakdagi ta'lim jarayonida asosiy rol o'ynaydi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida aksilogik pozisiyani rivojlantirishning zarurati haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak tarix darslari orqali o'quvchilarga qadriyatlarni singdirish uchun o'qituvchining o'zi o'zining aksilogik pozisiyasini rivojlantirishi kerak chunki, tarix o'qituvchisi o'quvchilarni milliy, madaniy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirib, ularning shaxsiy ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shishi lozim. Bu jarayon o'qituvchi va o'quvchi o'rtaсидаги axloqiy va ma'naviy munosabatlarga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining aksilogik pozisiyasini rivojlantirish uchun quyidagi metodik tamoyillar asosida harakat qilish lozim:

Shaxsiy namuna tamoyili: O'qituvchi o'zi aks ettirgan qadriyatlar va etika tamoyillariga amal qilgan holda, o'z o'quvchilari uchun namuna bo'lishi talab etilgan bo'lib, o'qituvchining axloqiy yondashuvlari o'quvchilarning tarixiy voqealarga va shaxsiyatlarga munosabatiga ta'sir qiladi.

Dialog va interaktiv yondashuv: O'qituvchi va o'quvchi o'rtaсидаги o'zaro muloqot orqali o'quvchilarning shaxsiy qadriyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari yaratish orqali tarix darslarida madaniy, milliy va diniy xilma-xillik masalalari muhokama qilinadi va qadriyatlar o'rtaсидаги farqlar izohlanadi.

Refleksiya tamoyili: Aksilogik pozisiyani rivojlantirish uchun o'qituvchi o'quvchilarni o'zlariga berilgan qadriyatlarga tahliliy yondashishga undashi lozim bo'lib, Tarixiy hodisalardan olingan saboqlarni o'rganish va ularga axloqiy baho berish jarayonida reflektiv yondashuv muhim o'rinn tutadi.

Kontekstual yondashuv: Tarixiy voqealarni tahlil qilishda ularning tarixiy va madaniy kontekstini hisobga olgan holda har bir voqeanning qadriyatlar tizimidagi o'rni, uning zamonaviy jamiyatga ta'siri haqida muhokama qilish orqali o'qituvchi o'quvchilarning axloqiy qarashlarini shakllantiradi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida aksilogik pozisiyani rivojlantirish uchun foydalilaniladigan metodlar quyidagicha:

Muammoli ta'lim - Muammoli ta'lim o'quvchilarga tarixiy hodisalar va ularning sabablari ustida fikrlashni va tahlil qilishni o'rgatadi. Muammoli savollar qo'yib, o'qituvchi o'quvchilardan muayyan tarixiy vaziyatlarga ma'naviy va axloqiy nuqtai nazaridan yondashishni talab qiladi. Misol uchun, o'quvchilarga "Inson huquqlari deklaratsiyasi qabul qilinmaganida, zamonaviy jamiyat qanday bo'lar edi?" kabi savollarni berish mumkin.

Bahs va munozaralar tashkil qilish - O'quvchilarni qiziqtirgan tarixiy mavzular asosida bahs va munozaralar o'tkazish orqali ularning o'z qadriyatlarini ustida fikrlash imkoniyatini yaratish mumkin. Bu metod orqali o'quvchilar turli qarashlar bilan tanishadilar va o'zlarining axloqiy pozisiyalarini mustahkamlaydilar.

Rol o'ynash va simulyasiya - Rol o'ynash o'quvchilarga turli tarixiy shaxslarning qiyofasida bo'lib, ularning qadriyatlariga mos qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Misol uchun, o'quvchilardan tarixiy bir davrni ifodalaydigan voqealar simulyasiyasida qatnashish talab qilinadi. Ular tarixiy shaxslar sifatida qarorlar qabul qilib, bu qarorlarning axloqiy va ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilishadi.

Tarixiy hikoyalari va voqealarni o'rganish - Tarixiy hikoyalari orqali o'quvchilarga insoniyat tarixidagi muhim qadriyatlar haqida saboqlar berish mumkin. Ushbu metod orqali tarixiy shaxslarning harakatlari, axloqiy va ma'naviy qarorlari qanday natijalarga olib kelganini ko'rsatish muhimdir.

Reflektiv yozuv va tahlil ishlari - O'quvchilarga tarixiy hodisalar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini yozma tarzda ifoda etish imkoniyatini berish ham aksilogik pozisiyani rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Ular o'zlarining tarixiy voqealarga bo'lgan shaxsiy qarashlarini yozib, bu jarayonda o'z aksilogik yondashuvlarini tahlil qiladilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytish joizki bo'lajak tarix o'qituvchilarining aksiologik pozisiyasini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligida muhim o'rinni tutadi. Ular faqat tarixiy bilimlarni o'rgatibgina qolmay, balki o'quvchilarda axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga ham yordam berishi lozim. Shu sababli, aksiologik pozisiyani rivojlantirish bo'yicha yuqorida keltirilgan metod va tamoyillar asosida o'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish zarur.

Ta'lif jarayoniga bu metodlarni tatbiq qilish, nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning ma'naviy jihatdan yetuk shaxslar bo'lib shakllanishiga ham hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Зинченко В.П. Человек развивающийся. Очерки российской психологии. – М.: Триволя, 1994. – С.304
2. Давлатов О.Ф. Талабаларда ахборот хавфсизлигини таъминлаш компетентлигини тарихий-маданий мерос воситасида ривожлантириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. – Тошкент, 2018. – 177 б.
3. Жамолдинова О.Р. Ёшлар соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришда узвийлик ва узлуксизлик тамоиллари амал қилишининг педагогик механизmlарини такомиллаштириш: Автореф. ... пед. фан. док. – Т., 2015. – 86 б.
4. Жуманиёзова М.Т. Малака ошириш жараёнида ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлашнинг педагогик асослари (тарих фани ўқитувчилари мисолида): Педагогика фанлари номзоди ... дисс. – Т., 2007. – 176 б.
5. Жўраев Н. Тарих фалсафаси. Тушунча, моҳият ва сиёsat. – Т.: Маънавият, 1999. – Б.22.
6. Yuldashev, J. A. "Content of development of axiological position in future teachers in the process of history education." current research journal of pedagogics 4.06 (2023): 82-88.
7. Юлдашев, Дж "Взаимосвязь развития исторического сознания и аксиологического мировоззрения в восприятии студентов." Общество и инновации 2.3/S (2021): 53-58.
8. Yuldashev J. Developing axiological world view in students in teaching history //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 4. – S. 281-283.
9. Юлдашев Ж. Аксиологический Подход В Обучении Истории: Содержательный Компонент // "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2021. – С. 185-187.
10. Yuldashev J. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini aksiologik pozisiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati //Scientific-theoretical journal of International education research. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 76-78.
11. Юлдашев Д. Талабаларда тарихий онг ва аксиологик дунёқарашни ривожлантиришнинг ўзаро алоқдорлиги //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 53-58.